

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA MATEMATIK SAVODXONLIKNI SHAKLLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**Raximov Shahriyor Normurod o‘g‘li***Samarqand davlat pedagogika instituti assistenti**raximovshahriyor2412@gmail.com***Jozilova Ruxshona Asqar qizi***Samarqand davlat pedagogika instituti talabasi**ruxshonajozilova833@gmail.com*

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matematik savodxonlikni shakllantirishning nazariy asoslari va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Matematik savodxonlik tushunchasining mazmuni, uning ahamiyati hamda o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos ravishda shakllantirish usullari yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Matematik savodxonlik, boshlang‘ich ta‘lim, mantiqiy fikrlash, o‘yin texnologiyalari, ta‘lim jarayoni, STEAM yondashuvi.

Ключевые слова: математическая грамотность, начальное образование, логическое мышление, игровые технологии, образовательный процесс, подход STEAM.

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические основы и практические аспекты формирования математической грамотности у учащихся начальной школы. Освещено содержание понятия математической грамотности, его важность и методы формирования в соответствии с возрастными особенностями учащихся.

Abstract. This article analyzes the theoretical foundations and practical aspects of the formation of mathematical literacy in primary school students. The content of the concept of mathematical literacy, its importance, and methods of its formation in accordance with the age characteristics of students are highlighted.

Keywords: Mathematical literacy, primary education, logical thinking, game technologies, educational process, STEAM approach.

Hozirgi globalashuv jarayoni jadallashgan davrda ta‘lim tizimi oldiga yangi va dolzarb talablar qo‘yilmoqda. Dunyo miqyosida innovatsion texnologiyalar, raqamli iqtisodiyot va bilimga asoslangan jamiyatning rivojlanishi natijasida o‘quvchilarning matematik savodxonligi muhim kompetensiyalardan biriga aylangan. O‘z navbatida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4884-son qarorida qayd etilganidek, ‘Ta‘lim sifatini oshirishda innovatsion yondashuvlarni joriy etish va o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini

rivojlantirish ustuvor vazifa etib belgilangan” [1]. Shu nuqtai nazardan, boshlang‘ich ta‘lim bosqichidayoq o‘quvchilarda matematik savodxonlikni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasining xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirishda quyidagi ko‘rsatkichlarga erishish nazarda tutiladi: Shu asosida STEAM tarixiga ko‘ra STEAM yondashuvi dastlab 1990-yillarda AQSh Milliy ilmiy jamg‘armasi tomonidan STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) sifatida ilgari surilgan. 2000-yillarda ta‘limda ijodkorlikni kuchaytirish maqsadida STEM tarkibiga “Art” (san‘at) qo‘shildi. STEAM atamasi 2006-yillarda Rhode Island School of Design tomonidan keng targ‘ib qilina boshlandi. STEAM (Science - Fan (tabiiy), Technology - Texnologiya, Engineering - Muhandislik, Art - San‘at, Math - Matematika) - bu integratsiyalashgan o‘quv yondashuvi bo‘lib, o‘quvchilarda fanni amaliyot bilan bog‘lash ko‘nikmasini rivojlantiradi. Natijada o‘quvchilar bilimni alohida emas, balki yaxlit tizim sifatida qabul qilishni o‘rganadilar [2].

Matematik savodxonlik - bu insonning kundalik hayotdagi muammolarni matematik tushunchalar va usullar yordamida hal qilish qobiliyatidir. Ya‘ni hayotiy vaziyatlarni “Matematika tiliga” o‘g‘irish va to‘g‘ri xulosa chiqarish sanaladi [3]. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matematik savodxonlikni shakllantirish jarayoni ularning yosh va psixologik jarayonini hisobga olgan holda tashkil etilishi lozim. Bu bosqichda o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash, tahlil qilish, taqqoslash va umumlashtirish ko‘nikmalari asta-sekin rivojlanadi. Shu sababli o‘qituvchi dars jarayonida faqat tayyor bilimlarni berish bilan cheklanib qolmasdan, balki o‘quvchini faol fikrlashga undovchi muammoli vaziyatlar yaratishi zarur.

Muammoli vaziyat metodi — bu ta‘lim oluvchilarni tayyor bilimni o‘zlashtirishga emas, balki muammoni tahlil qilish va uning yechimini mustaqil topishga o‘rgatuvchi interfaol metoddir [4].

Muammoli vaziyat metodi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mustaqil fikrlashini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Bunday yondashuv orqali o‘quvchilar nafaqat bilimni egallaydi, balki uni amaliyotda qo‘llashni o‘rganadi. Shu bilan birga, boshlang‘ich ta‘lim jarayonida quyidagi metodlardan samarali foydalanish matematik savodxonlikni shakllantirishda ijobiy natija beradi: O‘yin texnologiyalari, STEAM yondashuvi. O‘yin texnologiyalariga misol sifatida “Do‘kon o‘yini” ni keltirishimiz mumkin. Bunda o‘quvchilar “xaridor” va “sotuvchi” rolda ishtirok etadi. Narxlar belgilanadi va ular pul hisoblashadi. STEAM yondashuvi ham boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matematik savodxonlikni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, o‘qituvchi tomonidan qo‘llaniladigan savol-javob, muhokama va kichik guruhlarda ishlash usullari o‘quvchilarning faolligini oshirib, ularning matematik nutqini rivojlantiradi. Bu esa matematik savodxonlikning muhim

tarkibiy qismi hisoblanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matematik savodxonlikni shakllantirish - ta‘lim jarayonining muhim va ajralmas qismi bo‘lib, u o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashi, muammoli vaziyatlarni hal etish va bilimlarni amaliyotda qo‘llay olish qobiliyatini rivojlantiradi. Mazkur jarayonda ko‘rgazmalilik, o‘yin texnologiyalari, interfaol metodlar hamda sinfdan tashqari mashg‘ulotlardan samarali foydalanish yuqori natijadorlikni ta‘minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, mashhur pedagog olim John Dewey ta‘kidlaganidek: “Ta‘lim - bu hayotga tayyorgarlik emas, balki hayotning o‘zidir.” bu maqolada keltirilgan vazifalarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi mamlakatimiz ta‘lim tizimining xalqaro ta‘lim jarayoniga integratsiyalashuvini ta‘minlaydi, sohadagi bo‘shliqlarni aniqlashga, ta‘limni ma‘lum darajada o‘zgartirishga va yangi vazifalarni belgilab olishga xizmat qiladi. Eng muhimi, o‘quvchilar bilimni adolatli va shaffof baholashga erishamiz. Shu bilan bir qatorda endigina shakllanib kelayotgan boshlang‘ich ta‘lim o‘quvchilarini mustaqil fikrlashga, o‘z g‘oyalarini erkin bayon etishga o‘rgatib kelajagimiz uchun mustahkam poydevor yaratamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining - O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi 2019-yil 29-apreldagi PF-5217 sonli Farmoni.
2. Assessing Reading, Mathematics and Scientific Literacy: A framework for PISA 2009. OECD, 2009
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta‘limi tizimida ta‘lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 8-dekabrda 997-sonli qarori.
4. Mirxalilova N.A., Davlatova M.A. TIMSS xalqaro baholash dasturida miqdor tushunchasi va uning turlari. Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 9 | 2022 ISSN: 2181-1385. Cite
Factor: 0,89 | SIS: 1,12 | SJIF: 5,7 | UIF: 6,1
5. www.gazeta.uz/uz
6. <https://www.scribd.com/document/816894331/Matematik-savodxonlik>